

SHAXS RIVOJLANISHIDA MULOQOTNING AHAMIYATI.

Ravshanova Zebo

Namangan Davlat universiteti, Pedagogika fakulteti

Amaliy Psixologiya yo'nalishi talabasi

Antonatsiya: *Ushbu maqolada muloqotning turlari, funksiyalari, ijtimoiy - psixologik jihatlar va shaxsning rivojlanishidagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *muloqot, kommunikatsiya, ijtimoiy jamiyat, identifikatsiya, refleksiya, stereotipizatsiya, stereotip ijtimoiy taraqqiyot, assertivlik, dialogik, monologik.*

Rivojlanayotgan jamiyatda shaxsning har tomonlama kamol topishi, ayniqsa ijtimoiy - psixologik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishida muloqot alohida ahamiyatga ega. Inson tug'ilgandan boshlab sotsial muhitda rivojlanadi. Odam nutq, emotsional sezgirlik va ijtimoiy faollikni aynan muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Muloqot faqat aloqa vositasi emas, balki, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, axloqiy qadriyatlar va madaniyatni o'zlashtirishda asosiy vositada bo'lib xizmat qiladi.

Muloqot - ya'ni kommunikatsiya bu ikki yoki undan ortiq subyektlar o'rtasida axborot almashinuvi, o'zaro ta'sir va bir birini tushunish jarayonidir. Muloqotning eng muhim vazifalaridan biri uning ijtimoiy xulqdagishtiroki va uni muvofiqlashtirishdir. Rus psixologi A.A. Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir-birini tushunish mexanizmlarini aniqlash borasidagi qator psixologik qonuniyatlarini kuzatgan. (1) Bunday mexanizmlarga identifikatsiya, refleksiya va stereotipizatsiya kiradi.

- **Identifikatsiya** - shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladilar.

- **Refleksiya** - muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan turib, o'zini tasavvur qilish.

- **Stereotipizatsiya** - odamlar ongida muloqot mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan, ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish hollaridir. A.A. Bodalev tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, muloqotning bunday mexanizmlari ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlansa, boshqa holatlarda esa undagi xatoliklarni sababi bo'lishini ta'kidlaydi.

Psixolog L.S. Vigotskiy esa muloqotni "ijtimoiy taraqqiyotning -negizi"-, deya ta'riflaydi. Bu fikrga ko'ra, bola avval muloqot orqali tashqi dunyoni idrok etadi, keyin esa ichki ong jarayonlarini shakllantiradi. Bu esa shaxsning ijtimoiy jamiyatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyotini rivojlanishida muhim omillardan biri.

Muloqotda so'zsiz belgilar (mimika, tana tili) ning o'zni beqiyosdir. Albert Mehrabainning mashhur qoidasi bor va u quyidagicha: muloqotdagi ma'noni yetkazishda :

6. 7% - so'zlar



7. 38% - ohang va tovush ohangi orqali
8. 55% - tana harakati va yuz ifodasi orqali uzatiladi.(2)

Bundan ko‘rinib turibdiki, odamlar muloqot jarayonida so‘zlardan tashqari turli xil harakatlardan , qiliqlaridan, holatlardan, kulgu , ohanglar va boshqalardan foydalanadilar. Qiliqlar , mimika , ohanglar , to‘xtashlar (pauzalar) , hissiy holatlar , kulgu , yig‘i , ko‘z qarashlar , yuz ifodalari o‘zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo‘lib , ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib uni to‘ldiradi va ba‘zan esa nutqli muloqotning o‘rnini bosadi.

Faoliyat nazariyasining asoschilaridan biri Leontyev muloqot faqat ijtimoiylashuvda emas balki,faoliyatdagi o‘rni haqida bir qator fikrlar yuritgan.Bulardan -”muloqotni shunchaki axborot almashish emas,balki faoliyatning ijtimoiy shakli deb tushuntiradi.(3)Muloqot -inson faoliyatining ijtimoiy shakli bo‘lib, u shaxs rivojlanishining va jamiyatda faol ishtirok etishining asosiy shartidir .

Bundan tashqari muloqot mavzu va yo‘nalishiga ko‘ra bir qator turlarga ajratish mumkin:

°Ijtimoiy yo‘naltirilgan ya’ni keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot, masalan, teleboshlovchilarning tomoshabinlarga murojaati, deputatlikka nomzodning saylovchilar bilan uchrashuvi ,ommaviy namoyishlar chog‘ida notiqning omma oldida chiqish qilishi kabi jarayonlar bunga yaqqol misoldir.

° Guruhdagi faoliyatning predmetiga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot-mehnat , ta’lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a’zolarining muloqotini ko‘rishimiz mumkin.

° Shaxsiy muloqot bu bir shaxsning boshqa shaxs bilan o‘z muammolarini yechish maqsadida o‘rnatgan munosabatlari, ikki dugonaning dildan suhbatlashishlari ,onaning farzandiga o‘g‘itlari kabi .

° Pedagogik muloqot - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida amalga oshiriladigan murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni kabi jarayonlar bir - biridan farqlanadi .(4)

Har bir muloqot turining o‘z qonun - qoidalari ,ta’sir usullari va yo‘l - yo‘riqlari borki ,ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, odamlar bilan doimo muloqotda bo‘ladiganlar , jamoat ishlarini boshqaruvchilarining burchidir . Muloqot jarayonining murakkab psixologik tabiatini bilish , turli sharoitlarda samarali munosabatlar o‘rnatish malakasini oshirish uchun uning tarkibiga kiruvchi element yoki bo‘laklarni bilish zarur.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko‘rinishlariga kelsak , uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan , o‘sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko‘rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda , har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo‘ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa ,masalan , rahbarining o‘z qo‘l ostida ishlayotgan hodimlar bilan muloqoti , o‘qituvchining o‘quvchilari bilan bo‘ladigan munosabat shaklini tushunamiz. Norasmiy muloqot - bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o‘sha suhbatdoshlarning fikr-o‘ylari , niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan baholanadi.





Muloqot o'z navbatida ijtimoiy xulqning vositasi hisoblanadi . Muloqotning eng muhim vazifalaridan biri - uning ijtimoiy xulqdagi ishtiroki va uni muvofiqlashtirishdir. Ijtimoiy xulqning bevosita maqsadi va mohiyati odamlarga ta'sir ko'rsatish bo'lganligi uchun ham olimlar uning yo'nalishlari va jamiyatdagi ahamiyatiga e'tiborini qaratadilar. Professor R.S.Nemovning yozishicha , insonlararo munosabatlarda ijtimoiy xulqning quyidagicha ko'rinishlari mavjud bo'ladi:

- Muvaffaqiyatlarga erishish yoki mag'lubiyatlardan qochish bilan bog'liq yo'nalishdagi ijtimoiy ta'sir;
- Insonlarga doimiy ravishda intilish yoki ulardan qochish , hadiksirash bilan bog'liq xulq ko'rinishlari;
- Odamlar ustidan hukmronlik qilishga intilish yoki bo'ysunishga moyillikni namoyon etuvchi harakat yo'nalishlari;
- O'ziga ishonch yoki hamisha o'zgalar oldida nochorlikni his qilish .(5)

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy xulq shakllari shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi , ularning odamlar orasidagi nufuzi va taqdiriga aloqador xulq shakllari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda . Masalan:

- odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat va yomonlikni, do'stlik yoki dushmanlikni namoyon etuvchi sifatlar;
- hayotda aniq zafarlarga erishish yoki hokimiyatga egalikni taminlash omillari;
- o'ziga ishonch (assertivlilik) yoki tushkunlik (nochorlik) holatlarida shaxsning hatti harakatlari.Odamlarga mehr-muhabbat v mehr-oqibat ko'rsatishga aloqador ijtimoiy xulq shakllari orasida alturizm, ya'ni , o'zgalarga beminnat yordam ko'rsatishga moyillikka aloqador say- harakatlar asrimizning eng muhim qadriyatlariga aylanib bormoqda.

Muloqot -ya'ni og'zaki nutqning o'zi diologik va monologik turlarga bo'linadi.

°Diologik nutqning mazmuni, uning harakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga , qiziqishlariga , bir -birlariga bo'lgan munosabatlariga , maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining , siyosiy rahbarlarining, diplomatlarning , ko'chada uchrashib qolgan dugonalarining , sevishgan ikki yoshning diologik suhbatlari bir -biridan farq qiladi.

° Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar jamoasiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi , fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi , gapirayotgan paytda grammatik qonun - qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab , ma'ruza qilib bo'lgunga qadar , qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi , unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Diologik nutqqa nisbatan bu nutq turi murakkabroq hisoblanadi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.А.А Бодалев Психология общения
- 2.Mehrabian.A. Ferris S.R(1967)
- 3.А.Н.Леотйев . Избранные психологические произведения
- 4.Шибутани. Т. Социальная психология
- 5.Немов Р.С,Алтунина У.Р Социальная психология

